

BOLANING PSIXIK RIVOJLANISHIDA OILA VA IJTIMOY MUHITNING O‘RNI

Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Alisherova Zulfiya Tolibjanovna
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ashirmamatova Madina Murodiljon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411499>

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs rivojlanish jarayonida bolalik, o‘smirlik, yoshlik va kattalik bosqichlarida ong, xarakter, emotsional holat hamda ijtimoiy moslashuvning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar yoritiladi. Maqolada yoshga oid psixologik xususiyatlarni o‘qitish jarayonida, tarbiyaviy ishlar va ijtimoiy muhitni loyihalashda inobatga olishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yosh avlod bilan ishlashda individual yondashuvni kuchaytirish, pedagogik strategiyalarni takomillashtirish hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali tashkil etishga xizmat qilishi izohlangan.

Kalit so‘zlar: yosh davrlari, psixologik rivojlanish, shaxs shakllanishi, bilish jarayonlari, emotsional holat, o‘smirlik psixologiyasi, yoshga oid xususiyatlar, ta’lim-tarbiya, yosh psixologiyasi.

Аннотация: В ходе развития личности выделены факторы, влияющие на формирование сознания, характера, эмоционального состояния и социальной адаптации на этапах детства, подросткового возраста, юности и взрослой жизни. В статье обоснована важность учета возрастных психологических особенностей в процессе обучения, при проектировании воспитательной работы и социальной среды. Результаты исследования объясняются необходимостью усиления индивидуального подхода в работе с подрастающим поколением, совершенствования педагогической стратегии и эффективной организации механизмов психологической поддержки.

Ключевые слова: возрастные периоды, психологическое развитие, формирование личности, познавательные процессы, эмоциональное состояние, психология подростков, возрастные особенности, образование, психология юношества.

Abstract: In the course of personality development, the factors affecting the formation of consciousness, character, emotional state and social adaptation in the stages of childhood, adolescence, youth and adulthood are highlighted. The article justifies the importance of considering age-related psychological characteristics in the process of education, in the design of educational work and social environment. The results of the research are explained to strengthen the individual approach in working with the young generation, improve pedagogical strategies and effectively organize psychological support mechanisms.

Key words: age periods, psychological development, personality formation, cognitive processes, emotional state, adolescent psychology, age characteristics, education, youth psychology.

Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivoji asosan yosh avlodning ma’naviy barkamolligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijtimoiy hayotda faol pozitsiyaga ega bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Oilaviy tarbiya esa bolaning shaxsiyati shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, globallashuv jarayonining kuchayishi, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar oilaviy birlikning zaiflashishiga, ajralishlar va nizolarning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, farzandlar ruhiy va psixologik jihatdan zaiflashishi, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari yuzaga kelishi

mumkin. Shu sababli, oilaviy muhitning bolalar tarbiyasiga psixologik ta'siri va uning sifatini yaxshilash yo'llarini o'rganish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, psixologik qo'llab-quvvatlash, oiladagi nizolar va konfliktlarning bolalar rivojiga ta'siri tahlil qilinadi hamda sog'lom oilaviy muhitni shakllantirishga doir tavsiyalar taqdim etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ajralishlar darajasi yillik o'rtacha 4% ga oshgan. Bu holat bevosita farzandlarning psixologik farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligi oila tarbiyasining sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Bola tarbiyasida yuzaga keladigan ko'plab muammolar, asosan, ota-onalarning farzand psixologiyasi, yosh davrlari rivojlanish xususiyatlari hamda tarbiyaviy yondashuvlar bo'yicha yetarli bilimga ega emasligidan kelib chiqadi.

Shu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini yodga olamiz, "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi. Yuqorida keltirilgan fikrlarda ta'kidlanganidek, yoshlarning odob-axloqi, dunyoqarashi va hayotga munosabati, avvalo, oilada shakllanadi. Zamon o'zgarishi tabiiy jarayon, ammo yosh avlodning ma'naviy negizi, milliy qiyofasi va o'zligini saqlab qolishida eng kuchli omil bu tarbiyadir. Farzand qaysi davrda ulg'aymasin, qanday axborot oqimlari ichida yash'amasin, uning qalbida "Biz kimmiz? Qaysi ulug' ajdodlarning davomchisimiz?" degan g'urur uyg'oq bo'lsa, u hech qachon o'zligini yo'qotmaydi. Bunday g'urur va mas'uliyat esa, avvalo, oila bag'rida, ota-onaning shaxsiy namunasida, uy ichidagi mehr, hurmat, muloqot madaniyati va qo'yilgan ma'naviy mezonlar asosida shakllanadi. Demak, bugungi tez sur'atda o'zgarayotgan hayot sharoitida ham farzandni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishning eng muhim mezonlari - oilada sog'lom muhit yaratish, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish, bolaga mehr, e'tibor, mas'uliyat va to'g'ri yo'l-yo'riq berishdir. Shuning uchun ham oila tarbiyasi faqat shaxsiy mas'uliyat emas, balki jamiyatning kelajagini belgilovchi strategik vazifadir. Farzandning har bir so'zi, odati, xulqi oilaning davomidir. Ota-ona shuni unutmasligi lozimki, "Biz o'zimiz qanday bo'lsak, farzandlarimiz ham shunday bo'ladi". Shu ma'noda, yoshlarning ma'naviy kamoloti va milliy g'ururini tiklashning eng ishonchli yo'li oilada sog'lom tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Oilada tarbiya bu g'oyat murakkab psixologik jarayon sanaladi. Shuning uchun ham ulug' o'zbek marifatparvari Abdulla Avloniy ham o'zining "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida tarbiya haqida shunday fikrlarni aytib o'tganlar. "Alhosisil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" [2;14]. Darhaqiqat, buyuk marifatparvarimizning ushbu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb sanaladi.

Ota-ona sinchkov psixolog, nozik didli pedagog, bolaning kelajagini yaratuvchi bashoratgo'y bo'lishi lozim. Agar ota-ona boladagi iste'dod kurtaklarini o'z vaqtida sezib, ularning rivojlanishiga sharoit yaratib bera olsa, bola shaxsining kamol topishiga katta yo'l ochadi [7;201]. Tarbiyning har bir qismi tug'ilishdan yetti yoshgacha avval ota-ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o'z boshiga tushadi [3;62].

L. S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi yosh davrlar psixologiyasining asosiy ilmiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Olimga ko’ra, shaxsning psixik rivojlanishi biologik omillargagina emas, balki ijtimoiy muhit, madaniy vositalar, til va muloqot jarayonlariga ham bevosita bog’liq. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi tushunchasini ilgari surib, bola o'z imkoniyatlaridan tashqari, kattalar yoki tajribali tengdoshlar yordamida yuqori bosqichdagi ko'nikmalarni egallashi mumkinligini asoslagan. Bu yondashuv yosh davrlarida kuzatiladigan bilish jarayonlari, tafakkur shakllanishi va motivatsiya dinamikasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Asarda bola faoliyati turli bosqichlarda turlicha mazmunga ega ekani, rivojlanish jarayonining uzluksiz, lekin bosqichma-bosqich sodir bo'lishi ilmiy dalillar bilan yoritilgan. Ayniqsa, o'smirlik davrida ijtimoiy tajribani o'zlash- tirish, shaxsiy identifikatsiya, mustaqillik va emotsional beqarorlikning kuchayishi kabi holatlar ijtimoiy-madaniy omillar bilan izohlanadi. Vygotskiyning ushbu qarashlari zamonaviy ta'lim metodikalarida, pedagogik psixologiyada va yoshlar bilan ishlash jarayonida keng qo'llanilmoqda. Uning nazariyasi yoshga oid xususiyatlarni to'g'ri baholash, shaxs rivojlanishiga mos yondashuvni tanlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi yosh davrlar psixologiyasida eng ta'sirli ilmiy yondashuvlardan biri sanaladi. Uning fikricha, bola tafakkuri muayyan bosqichlar orqali rivojlanib boradi va har bir bosqich shaxsning dunyoni idrok qilishi, mantiqiy fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyati bilan belgilanadi. Piaget bolaning bilish jarayonlarini kuzatish, eksperimentlar o'tkazish va ular asosida umumiy qonuniyatlarni aniqlash orqali rivojlanishning to'rtta asosiy bosqichini belgilagan: sensomotor, preoperatsional, konkret operatsiyalar va formal operatsiyalar bosqichi.

Piagetning tadqiqotlarida bola tafakkurining mantiqiy asoslari yoshga qarab murakkablashib borishi, o'smirlik davrida esa abstrakt fikrlash shakllanishi batafsil yoritilgan. Bu yondashuv yosh davrlarida o'quv jara- yonini tashkil etishda, ta'lim mazmunini yosh xususiyatlariga moslashtirishda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi. Piagetning fikricha, bola tayyor bilimni o'zlashtir- maydi, balki faol bilish jarayonida uni qayta quradi, bu esa ta'limda interaktiv metodlar, ijodiy topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlarni qo'llashning zarurligini ko'rsatadi.

Z. Freydning psixoanalitik nazariyasiga ko’ra, bolaning ruhiy holati erta bolalikdagi tajribalar, ota-onalar o’rtasidagi hissiy aloqalar bilan belgilanadi. Bola onaning emotsional holatini sezadi, otaning xatti-harakatlarini ichki dunyosiga singdiradi. Shu bois oila ichidagi nizolar bola ongsizligida qo’rquv va himoyasizlik hissini keltirib chiqaradi.

E. Erikson shaxs rivojlanishining psixosotsial bosqichlarini tahlil qilib, bola o’z shaxsini shakllantirish jarayonida ishonch va xavfsizlik tuyg’usini oiladan olishini ta’kidlagan. Agar bu bosqichda nizolar kuchaysa, bola ichki ziddiyat, xavotir va o’zini qadrsiz his qilish hissi bilan ulg’ayadi.

A. Banduraning “ijtimoiy o’rganish nazariyasi”ga ko’ra, bola o’z xatti-harakatlarini kuzatish orqali o’rganadi. Agar u oilada agressiv muloqotni ko’rsa, bunday xulqni me’yor sifatida qabul qiladi. Natijada bola konfliktni hal etishning konstruktiv emas, balki destruktiv shaklini o’zlashtiradi.

K. Rodjers esa oila a’zolari o’rtasida “shartsiz qabul qilish” va “empatik tinglash” tamoyillarini asosiy omil sifatida belgilaydi. Bunday muhitda bola o’zini qadrlangan, xavfsiz va psixologik jihatdan mustahkam his qiladi. Shuningdek, mahalliy olimlar — O. Yusupova, Z. Abduqodirova va N. To’xtayevalarning tadqiqotlarida oilaviy stress holatlari, emotsional beqarorlik va ularning bolalar ruhiyatiga ta’siri masalalari yoritilgan. Ularning fikricha, oilada

muloqot madaniyatining yetishmasligi va hissiy sovuqlik bolaning ijtimoiy faolligini pasaytiradi, o’qish motivatsiyasini susaytiradi.

Tarbiya haqida Imom G’azzoliyning “Ixyou ulumiddin” kitobida bunday deyilgan: “Bola ota-ona qo’lida bir omonatdir. Qalbi turli naqsh va rasmlardan pok, nima naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo’laveradi. Agar yaxshilika undalsa va o’rgatilsa, uning ustida o’saveradi, dumyo va oxiratta saodatli bo’ladi, ota-onasi hamda odob, ta’lim-tarbiya berganlar barchasi savobiga sherik bo’lishadi. Agar yomonlika undalsa, yomonlikka uchraydi, xalok bo’ladi va unga qarab turgan kishi zimmasiga gunohkorlik tushadi” [9;59].

L.S.Vigotskiy bola psixikasi rivojlanishida kattalarning rahbarligi hal qiluvchi o’rin tutishini ta’kidlab, shunday deydi: "Bola o'z taraqqiyotining yaqin rivojlanish zonasidan kattalarning pedagogik yordami orqali o'tadi. Ota-onaning to'g'ri ko'magi bola imkoniyatlarini kengaytiradi." Bola katta bo'lguniga qadar turli yosh davrining turli jarayonlarini boshidan kechiradi. U yosh davrining tanglik holatiga tushganida unga ko'makch vazifasini ota-onasi bajaradi. Demak, L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, bolaning psixik rivojlanishida kattalarning yo'naltiruvchi rahbarligi nihoyatda muhimdir. Bola ulg'ayish jarayonida turli yosh davrlariga xos o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Har bir yosh bosqichi o'ziga xos ehtiyoj, qiyinchilik va psixologik o'tish davrlariga ega bo'lib, bunday paytlarda bola ko'proq ko'mak va yo'l-yo'riqqa muhtoj bo'ladi. Aynan shunday vaziyatlarda ota-onaning sabr bilan tushuntirishi, ruhiy qo'llab-quvvatlashi, mehr va e'tibor berishi uning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ota-onaning oqilona yordami bolaning shaxs sifatida shakllanishida tayanch bo'lib xizmat qiladi: bola o'zida ishonch hissini his etadi, qiyinchiliklarni yengish ko'nikmasiga ega bo'ladi, muomala, tafakkur va xulqiy fazilatlarini barqarorlashadi. Demak, bola uchun eng birlamchi tarbiyachi bu oiladir. Ota-onaning mehribon, oqilona va izchil munosabati bolaning psixologik barqarorligining, salohiyati ochilishining hamda kelgusida mustaqil hayotga tayyorlanishining asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganimizda, oila muhitida bola psixik jihatdan shakllanadi va hayotga bo’lgan qarashlari aynan shu makonda belgilanadi. Bolaning sog’lom ruhiy rivojlanishi uchun oila doirasida ijobiy munosabatlar, hissiy barqarorlik, o’zaro hurmat va doimiy muloqot zarur. Ota-onalar farzandining psixologikholatigabefarq bo’lmasligi, uning ichki dunyosiga e’tibor qaratishi kerak. Psixologik barqaror oilalar–sog’lom jamiyatning tayanchidir. Shu sababli, ushbu masalalarni chuqur tahlil qilishvaamaliyotdaqo’llash har bir pedagog, psixolog va ota-ona uchun muhim vazifadir.

Ijtimoiy muhit psixik rivojlanishning ajralmas qismi bo’lib, uning turli komponentlari bolaning shaxsiyati, emotsional barqarorligi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Tarbiya jarayonida oilaviy, maktab va jamoat muhitlarining uyg’unligi va ijobiy ta’siri ta’minlanishi kerak. Amaliy jihatdan, ota-onalar va pedagoglar media savodxonligini oshirish, qo’llab-quvvatlovchi pedagogik texnikalarni qo’llash va ijtimoiy yordam tizimlarini mustahkamlash orqali bolaning psixik rivojlanishini qo’llabquvvatlashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi mavzusidagi nutqi. -Toshkent, 15-iyun 2017 y.
2. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yuxud axloq” asari. Toshkent: “O’qituvchi” nashriyoti, 1992.
3. Abdurauf Fitrat Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Ikkinchi nashr, T., Ma’naviyat.2000
4. Abdullaeva M. M., Karimova N. R. Bola psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

5. Erkaboyeva D. M. Ilk yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/farzand-tarbiyasida-oilaviy-muhitning-psixologik-ta'siri>.
7. Mavlonova R, Normurodova B, Rahmonqulova B, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv qo‘llanma, Toshkent: “Tib kitob” nashriyoti, 2010.
8. Piaget J. Bolalar tafakkuri va intellekt rivoji. Nyu-York: Routledge, 2015.
9. Usmonxon Alimov Oilada farzand tarbiyasi. Toshkent: 2014.
10. Vigotskiy L. S. Psixologik rivojlanish nazariyasi. Moskva: Pedagogika, 2019.
11. Alisherova Zulfiya Tolibjanovna. (2025). The importance of emotional intelligence in the development of socio-psychological adaptation of adolescents. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 4(6), 148–150. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3411>
12. Zulfiya Alisherova O’smirlarning o’zaro munosabatlaridagi muloqot jarayonida emotsional intellektni o’rni. (2025). *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(4.2), 544-546. <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/91947>